



INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL: EDUCATION, SKILLS AND INNOVATION AS A DEVELOPMENT FACTOR

Umida Qayumova

Researcher

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: human capital, education, economic growth, social development, skills, innovation, skills, investment, lifelong learning.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article analyzes the role of human capital in the economic, social, and cultural development of individuals and society. The article also shows the practical results of human capital development using the experience of countries such as Finland, Singapore, and South Korea.

INSON KAPITALIGA SARMOYA: TA'LIM, KO'NIKMA VA INNOVATSION TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA

Umida Qayumova

Namangan davlat universiteti, tadqiqotchi

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: inson kapitali, ta'lim, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy rivojlanish, ko'nikmalar, innovatsiya, malaka, sarmoya, uzluksiz ta'lim.

Annotatsiya: ushbu maqolada inson kapitalining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan shaxs hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilingan bo'lib, shuningdek maqolada Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tajribasi misolida inson kapitalini rivojlantirishning amaliy natijalari ko'rsatilgan.

ИНВЕСТИЦИИ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ: ОБРАЗОВАНИЕ, НАВЫКИ И ИННОВАЦИИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ

Умида Каюмова

Исследователь

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: человеческий капитал, образование, экономический рост, социальное развитие, навыки, инновации, навыки, инвестиции, непрерывное обучение.	Аннотация: В статье анализируется роль человеческого капитала в экономическом, социальном и культурном развитии личности и общества. Показаны практические результаты развития человеческого капитала на примере таких стран, как Финляндия, Сингапур и Южная Корея.
---	---

Kirish. Inson kapitali tushunchasi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan shaxs va jamiyat rivoji uchun muhim asoslarga ega. Bolani dunyoga keltirish, uni tarbiyalash, sifatli ta'lim bilan ta'minlash va ma'lum axloqiy qadriyatlar tizimida yo'naltirish katta moddiy va ma'naviy xarajatlarni talab qiladi. Bu xarajatlar kelajakda shaxsning jamiyatda samarali, mas'uliyatli va faol ishtirokchi bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Bunday sarmoyalar nafaqat mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga, balki oilaning ijtimoiy va moddiy farovonligiga ham sezilarli hissa qo'shadi. Masalan, yaxshi ta'lim olgan va sog'lom muhitda ulg'aygan shaxs o'z kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishib, oila va jamiyat uchun qo'shimcha resurslar yaratishi mumkin.

Globalashuv zamonida insonning aqlu zakovati, bilimini oshirishga bo'lgan e'tibor va jarayonlar tobora jadallashmoqda. Sababi qayerda inson kapitaliga e'tibor berilayotgan bo'lsa, o'sha mamlakatlar izchil taraqqiy etganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Singapur, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, va Finlandiya buning yorqin misolidir.

Inson kapitalining tarkibiy qismlari har bir insonning shaxsiy va professional hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, inson kapitali nafaqat iqtisodiy manbaa sifatida, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishiga ta'sir etuvchi zarur omil sifatida ham qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Inson kapitali atamasi XX asrning 60-yillaridan boshlab fan tarmog'ida o'z o'rnini mustahkamlashni boshladi. G'arb mutaffakkirlari D.Minser[1], T.Shul'ts[2] va G. Bekkerning[3] o'zarining inson kapitali nazariyalarini insonga sarmoya kiritish va mehnat unumdorligini oshirish (ta'lim, professionallar ko'nikmalari va sog'liqni ham o'z ichiga olgan holda) sifatida o'rganishgan va nufuzli Nobel mukofotini qo'lga kiritishgan.

kapitali tushunchasini nazariy jihatdan o'rganish bo'yicha dastlabki harakatlar 17-asrda amalga oshirilgan, lekin bu nazariyaning izchil yondashuvi 1950-yillardan boshlab rivojlandi. XX asrning ikkinchi yarmida "Inson kapitali" atamasi ilk bor rivojlanmagan mamlakatlarning o'rgangan iqtisodchi Teodor Shul'tsning asarlarida paydo bo'lgan. T. Shul'ts, "kambag'al insonning

farovonligini oshirish yerga ishlov berish, texnologiyaga yoki ularning sa'y-harakatlariga emas, balki ular olishi mumkin bo'lgan bilimga bog'liq"[4] degan g'oyani ilgari surgan. Olimning nazariyasi bo'yicha barcha inson resurslari va qobiliyatlari tug'ma yoki orttirilgan deb olish mumkin. Har bir inson tug'ma genlarning individual to'plami ya'ni kompleksi bilan tug'iladi, bu uning tug'ma insoniy salohiyatini belgilaydi. Keyinchalik shaxs hayoti davomida tegishli investitsiyalar bilan mustahkamlanishi mumkin bo'lgan qimmatli fazilatlarga ega bo'lishini orttirilgan qobiliyat ya'ni inson kapitali deyish mumkinligini ta'kidlagan. Ayniqsa bugungi ilmiy texnika inqilobi davrida kapitalni hosil qilishda, ta'limni roli va ahamiyatini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. T.Shultsning inson kapitaliga oid nazariyasi Nobel mukofotini olishga ham sabab bo'lgan.

T. Shultsning ta'kidlashicha, "inson layoqati investitsiya xususiyatiga ko'ra faoliyatning alohida turlari natijasida rivojlanadi. Shunday investitsion faoliyat turlariga: maktab ta'limi, ish joyidagi tajriba orttirish, sog'likni mustahkamlash, iqtisodga doir ma'lumotlar zaxirasining o'sishi kiradi"[5].

Inson kapitali samaradorligi ishchi kuchi, uning bilimi va unga kiritiladigan investitsiyaga bog'liq bo'ladi. Bunda investitsiya sifati albatta shaxsga berilgan ta'lim, oilaviy muhit, sog'lom turmush tarzi va madaniy muhit sifatiga bog'liqdir. Garri Bekkerning inson kapitali nazariyasiga ko'ra, ta'lim, sog'liq va boshqa ijtimoiy sohalarga qilingan investitsiyalar iqtisodiy o'sish va shaxsiy unumdorlikka bevosita ta'sir qiladi[6].

Inson kapitalini baholashda inson farovonligi rivojlanish indeksi mamlakatning YaIM ulushi, aholining umr ko'rish davomiyligi va savodxonligini o'lchaydi. Ushbu ko'rsatkich ilk bor 1990-yilda Pokistonlik iqtisodchi va inson taraqqiyot nazariyasi asoschisi Mahbub ul-Haq[7] tomonidan BMT taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda Amartya Senning[8] nazariy g'oyalari asosida yaratilgan. Ijtimoiy kapitalni inson omili jihatidan E.Smit, J.Terner va T.Kun[9], inson kapitalini etnomadaniy jihatdan B.Anderson M.Fukolar[10] muhoma qilganlar.

Mamlakatimizda inson kapitalini iqtisodiy jihatdan S.G'ulomov, Q.Abdurahmonov, J.Ataniyazov, T.Jalilov, B.Usmonovlar[11] rivojlantirish uchun tadqiqotlar olib borishgan. Inson kapitalining sotsiologik jihatlari – M.Bekmuradov, A. Umarov, A.Xolbekov – ijtimoiy-madaniy omillari, inson kapitali rivojlanish jarayonlarini etnostsiologik xususiyatlari – M.Sodirjonov, sotsial kapitalning aholi turmush sifatini oshirishdagi ahamiyati – X.Akramov, O'zbekiston maktab ta'limi tizimida inson kapitalini rivojlantirishning sotsiologik tahlili – U.Xamidjonovlar tadqiq etishgan[12] bo'lsa, inson faravonligi va salomatligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan mamlakatimizda M.Abdullaeva, G.G'affarova, M.Sharipov, A.Abdullaev, F.Qosimov, M.Muxammedov, M.Norqobilov, D.Ernazarov[13]lar tomonidan o'rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (Analysis and results). Shu bilan birga, yangi bilim, ko'nikma va qobiliyatlar o'zlashtirish ham inson kapitalini rivojlantirishning muhim jihati hisoblanadi. Bu jarayon ko'pincha moliyaviy xarajatlar, vaqt va shaxsiy intilishlarni talab qiladi. Masalan, kasbiy malaka oshirish kurslari, xorijiy tillarni o'rganish yoki zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish shaxsning ish unumdorligini oshiradi, bu esa uning daromadini ko'paytirishga va shaxsiy hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bunday investitsiyalar iqtisodiy samaradorlikdan tashqari, ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash va shaxslararo aloqalarni rivojlantirish orqali jamiyatning umumiy farovonligiga ta'sir qiladi.

Ko'nikmalar – bu inson ta'lim, tajriba va amaliy jarayonda egallagan bilim va malakalardan iboratdir. Ular har bir shaxda kasbiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuvchanlik va mehnat unumdorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ko'nikmalarni egallagan shaxs uni o'z hayot tajribasida qo'llay oladi. Shu nuqtai nazardan, inson kapitali nafaqat shaxs to'plagan ko'nikmalardan balki bu ko'nikmalarni qay darajada samarali qo'llay olishi qobiliyati ham ahamiyatlidir. Insonlarning innovatsion yondashuvga ega bo'lishi hozirgi zamonaviy jamiyatlar uchun talab darajasidagi ko'nikmalardan biri bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz. Har bir shaxs o'zining egallagan bilim, malaka va tajribasini real hayotda qo'llay ola bilishi va uni yanada rivojlantirishga urinishi biz yuqorida qayt etayotgan inson kapitalining asosiy talabidir. Shu sababdan ham, inson kapitalini baholashda insonlarning mavjud nafaqat bilim va ko'nikmalari balki ularning amaliy natijalari va jamiyatga qo'shayotgan hissalari ham e'tiborga moyildir.

Tarixdan ma'lumki jamiyatlar taraqqiy jihatdan doim ham bir xil rivojlanmaydi. Shu sababdan ham jamiyatda tabaqlanish mavjudligi tabiiy jarayondir. Biroq bu borada bir xillikka erishish zarurati mavjuddir. "Biz bir narsani to'g'ri tushunishimiz kerak: bitta ishsiz odam-o'nta muammo, degani. Bu muammolar ishsiz odamning o'ziga, oilasiga, mahallasiga, jamiyatga jiddiy zarar keltirishini hisobga olsak, masalaning naqadar jiddiy ekaniyanada oydinlashadi"[14]. Bu so'zlari bilan muhtaram prezidentimiz ijtimoiy hayotda barchani birdek faol bo'lish davlat siyosatining ahamiyatga molik tomoni ekanligiga urg'u berganliklarini ko'rish mumkin.

Tadqiqotlarda ma'lumki, inson bilimi va ta'limiga qilingan sarmoya uni hayoti davomida uch bosqichda amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi bosqich, erta bolalik bosqichi bo'lib, bu bosqichda bolalarni intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda ko'proq inson kapitali ota-ona tavsiyalari, tarbiyasi va madaniy muhit va ta'limning dastlabki yillaridagi tajriba va bilimlariga bog'liq bo'ladi. Bolalarni bilim olish jarayoni rasmiy ta'lim muassasalarida boshlanadi va bu bosqichda bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish, bilim olishga intilish bu bosqichlar asosida keyingi ta'lim bosqichlari uchun poydevor hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichda esa o'smirlar kasbiy yo'nalish tanlab, o'z sohalarida chuqur bilimlar olishga harakat qiladilar. Bu bosqichda qilingan investitsiya mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshadi. Oxirgi bosqichda esa, mehnat bozoriga kirgandan so'ng, texnologiyada yoki iqtisodiyotdagi o'zgarishlar tufayli mutaxasisi sifatida o'z bilim va ko'nikmalarini turli treninglar, malaka kurslari orqali yangilab borishlar zarur. Bu bosqichlar inson kapitalini samaradorligini ko'rsatib beruvchi nazariy asoslardir. Yuqoridagi jarayonlar davomida uzluksiz inson kapitali to'planib boradi.

Umuman olganda, inson kapitali inson hayotining ko'p jihatlariga, daromadidan tortib, sog'liq, intellektual salohiyat, malaka va ijtimoiy tengsizlikka ta'sir qiladi. Inson kapitali jismoniy kapitaldan farqli ravishda, inson hayoti davomida rivojlantirilib, uni qadrsizlanishdan saqlab qolish imkoniyati mavjud. Inson kapitali har bir shaxsning o'zida mujassam bo'lib uni, boshqa joyga ko'chirish yoki kishiga bevosita o'tkazib bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda inson kapitali qancha yuqori bo'lsa intellektual migratsiyani kamayishiga sabab bo'ladi Inson kapitali insonga kiritiladigan nomoddiy investitsiyalarni nazarda tutadi.

Bugungi kunda ko'rishimiz mumkinki, inson kapitali nazariyasi va amaliyotini o'z iqtisodiyotida qo'llagan bir qancha mamlakatlar, jumladan, AQSh va Yevropaning yetakchi mamlakatlari va Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur jadal rivojlanish tendensiyasiga ega. Masalan, Shvetsiya inson kapitali nazariyasi asosida o'z iqtisodiyotini isloh etdi va 2000-yilga kelib jahon iqtisodiyotida yetakchilar qatoriga qo'shildi. Finlandiya o'z tarixida qisqa davr oralig'ida innovatsiyalashgan iqtisodiyotga o'tdi va yuqori texnologiyali raqobatbardosh mamlakatga aylandi. Innovatsiyalashgan iqtisodiyot va axborotlashgan (axborot almashinuvi yuqori bo'lgan) jamiyatning fundamental asosini inson kapitali yaratdi[15]. Shuningdek Finlandiya jahonda eng ilg'or ta'lim tizimiga ega. Ta'limning o'zi innovatsion yondashuvi va o'quvchi yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchi bilan ajralib turadi. So'nggi yillarda mamlakatimiz ham Fin ta'limi tizimi andozasidan foydalanishni ma'qul ko'rayotgani ham bejiz emas.

“Ma'lumki, Finlyandiya talim tizimi zamonaviy dunyoda eng samarali tizimlardan biri bo'lib, uning yuqori darajasini ta'minlash mamlakat milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA) ma'lumotlariga ko'ra, Finlyandiya ta'limi bir necha yillardan beri jahon reytingida yetakchi o'rinlardan (eng yaxshi 10 lik ichida) birini egallab kelmoqda. PIRLSning 2016 yildagi tadqiqoti natijalariga ko'ra (5-o'rin, 566 ball), TIMSS 2019yil natijalariga ko'ra 19-o'rinni egallab turibdi”[16].

“Finlyandiyada ta'lim talabalarga yo'naltirilgan yondashuy asosida qurilgan va jarayonning barcha ishtirokchilari o'zlarini teng darajada his qiladigan muhitni yaratishga qaratilgan. Finlyandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonunida (1998 yil) Finlyandiya ta'limining uchta

asosiy maqsadi belgilab berilgan: (1) o'quychilarga hayotda zaruriy bilim va ko'nikmalarni berish, (2) jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish, (3) mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash. Finlyandiya maktablarida haftasiga 5 kunlik o'qish joriy etilgan. Barcha maktablar bir xil mavqega ega, bolalar qobiliyatiga ko'ra turli sinf yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ajratib o'qitilmaydi, Ularda boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi va 3 bolalarga baho qo'yilmaydi, o'qituvchilar tomonidan uyga vazifa deyarli berilmaydi, 2017 yildan aksariyat maktablar dars vaqtida "ruchkadan voz kechishgan" va dars jarayonida to'liq kompyuter va planshetlardan foydalaniladi"[17].

Shu bilan birga, bu yondashuv O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'rganilib, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va o'quvchilar farovonligini oshirish maqsadida joriy qilinmoqda. Mamlakatimizda ham ta'lim sifatini yaxshilash uchun shunday innovatsion usullarni joriy etish va barcha maktablarda teng imkoniyatlar yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi.

"O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdig'lash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalq ta'limi tizimi sifatini baholash, xalqaro tadqiqotlarda qatnashish va jahonning ilg'or 30 ta mamlakati qatoriga kirishishiga erishish nazarda tutilgan[18]. O'quvchilarning aniq va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholash uchun milliy tizim yaratish, shuningdek, ijodiy va tanqidiy fikrlash, axborotni to'g'ri olish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish maqsad qilingan.

Zamonaviy talablarga mos davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilar bilimini baholashda PISA, PIRLS, TIMSS va ICCS kabi xalqaro tadqiqotlarga muntazam ishtirok etish ko'zda tutilgan. Bunday tadqiqotlar ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, xalqaro solishtirishlar orqali yutuqlar va muammolarni aniq ko'rish imkonini beradi. Nafaqat o'quvchilarni salohiyatini aniqlashda balki boshqa mamlakatlarda qo'llanadigan muvaffaqiyatli metod va texnologiyalarni o'rganib, tajribaga joriy etish va u orqali mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy farovonligini oshirish mumkin.

Xalqaro darajada beshinchi marotaba o'tkazilgan mazkur xalqaro dasturda O'zbekiston ham 2023-yil ilk bor ishtirok etib, 57 o'rindan pastorq natija bilan 45- o'rinni egalladi.

Singapur dunyodagi eng yuqori darajadagi ta'lim tizimlaridan biriga ega bo'lib, davlat ilm-fanga e'tibor qaratib global raqobatbardosh iqtisodiyot yaratdi. Singapur davlati 2015-yilda "Skilssfuture" [19] milliy dasturi orqali o'zining har bir fuqarosini o'zlarining to'la qobiliyatlaridan foydalangan holda butun hayot davomida yangi ko'nikalar egalashiga yordam berib kelmoqda. Bu dastur orqali rivojlangan qobiliyat va har bir hissa Singapurning yuqori iqtisodiyotining keyingi rivojlanish fazasining oldinga borishi va inkluziv jamiyat yaratishga hissa qo'shishini ta'minlaydi. Bu dasturning o'ziga xos jihatlari shundaki, doimiy o'zgarib turadigan

ehtiyojlarga javob beradigan yuqori sifatli integratsiyalashgan ta'lim va trening tizimini rivojlantirish va hayoti davomida o'qishni va qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Sababi, uzluksiz ta'lim va hayot davomida qayta tayyorlanish hozirgi jadal rivojlanish sari olg'a qadam tashlayotgan 21-asrning talabalaridan biridir. Chunki, hozirda bugun o'qib ertaga o'qimas ekansiz, siz ko'p narsani yo'qotasiz.

SkillsFuture dasturi bir nechta tashabbuslar ni o'z ichiga olgan. Bular: "SkillsFuture Work-Study Programmes" bu dastur talabalarga o'qish bilan bir vaqtida ish tajribasi oltirirish uchun imkon beradi, shu orqali nazariy bilimlarni amaliyot bilan birlashtirishga yordam beradi.

Bu kabi dasturlar O'zbekistonda ham yoshlar bandligini oshirish, ularning kasbiy malakasini rivojlantirish va ta'lim bilan ish bozorini yaqinlashtirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari hamda korxonalar o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish orqali talabalarga o'qish jarayonida amaliy ish tajribasini oltirirish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu esa nafaqat bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi, balki mamlakatda malakali kadrlar tayyorlash tizimini ham takomillashtiradi.

Yana bir "SkillsFuture Series" deb nomlangan dastur qisqa muddatli kurslar to'plami bo'lib, tadbirkorlik, raqamli savodxonlik, raqamli texnologiyalar bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa ish bozoriga kirish va uning talabalariga moslashishga yordam beradi. Bu dasturning ahamiyati kattaligini biz Amerikaning uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yish maqsadidagi onlayn kurslar va professional dasturlarini ham misol qilishimiz mumkin. Coursera dasturi oladigan bo'lsak, bu onlayn platforma bo'lib, dunyodagi eng yaxshi universitetlar professionallaridan tashkil qilingan turli mavzu, fanga oid kurslar to'plami mavjud. Har qanday fuqarolar bu kurslardan foydalanish huquqiga ega bo'lib, mamlakatimizda ham "Bir million o'zbek dasturchilari" (One million uzbek coders) loyihasi 2019-yilda ishga tushirilgan bo'lib, loyihasining ikkinchi bosqichi doirasida o'zbekistonlik yoshlar ham "Coursera" platformasida sun'iy intellekt, Google Cloud, ma'lumotlar fanlari, karyera brendi va kodlash kabi 5 yo'nalish bo'yicha bepul ta'lim olishlari mumkin[20].

Bu tashabbus yoshlarning zamonaviy raqamli ko'nikmalarni egallashi, global texnologik tendensiyalarga moslashishi va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday dasturlar mamlakat ichidagi innovatsion ekotizimning shakllanishiga va texnologik tadbirkorlikni rivojlantirishga ham zamin yaratadi.

Masalan, "Bir million o'zbek dasturchilari" loyihasi orqali ko'plab yoshlar zamonaviy IT yo'nalishlarida dastlabki bilimlarga ega bo'lishdi, va bu ularning startaplar yaratish, frilansing bilan shug'ullanish yoki yirik xalqaro kompaniyalarda ishlash imkoniyatlarini kengaytirdi.

Kelajakda bunday loyihalarni hududlar miqyosida ham rivojlantirish, onlayn ta'lim platformalarini mahalliy ehtiyojlarga moslashtirish va davlat-xususiy sheriklik asosida ko'proq

amaliy loyihalarni yo'lga qo'yish O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti rivojida muhim qadam bo'lishi mumkin.

Jahon bankining malumotlariga ko'ra, insonlarning bilimi, tanqidiy fikrlashi, liderlik, muammolarni hal qilish va kommunikatsiyalarni yaxshilashga qaratilgan onlayn platformalar inson kapitalini oshirishda samaraliroq ekanligi qayd etilgan.

Inson kapitalini rivojlantirish zarur sharoitni shakllantiradi. Shu sababli ham O'zbekiston ta'lim tizimiga e'tibor berilgan holda oliy ta'lim muassasalari soni va qamrovi oshirildi. Yoshlarni ta'limini yuksaltirish va kasbga ega bo'lishini nazarda tutgan holda bugungi kunda O'zbekistonda oliy ta'limlar soni 208 tani tashkil qilmoqda. Ulardan 51,92% davlat, 33.65% nodavlat va 14.42% xorijiy ta'lim muassasalari tashkil qiladi[21].

Shu bilan birgalikda mehnat bozorini talablariga mos kasb-hunar ta'limini ham rivojlantirishga e'tibor berilmoqda. Kelgusi o'quv yilidan 14 ta maktabda fanlarni ingliz tilida o'qitishni yo'lga qo'yish, 2025-2026-yillarda 8 ta yangi ixtisoslashgan maktab qurish rejalari ham bayon etildi[22].

Oliy ta'lim muassasalarida va mamlakatimizning turli viloyatlarida innovatsion ekotizimni rivojlantirish maqsadida yoshlar texnoparklari, kovorking markazlari tashkil qilinmoqda.

Ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar mamlakat rivojlanishining muhim vositasi sifatida inson kapitalini va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi ijtimoiy siyosatning asosiy elementi hisoblanadi. Bunday harakatlar inson kapitalini rivojlantirish orqali moddiy farovonlik, ijtimoiy barqarorlik va sog'lom turmush tarzini ta'minlaydi. Inson kapitali har bir shaxsning individual salohiyati sifatida uning qobiliyat, bilim, ko'nikma va tajribalarini o'z ichiga oladi, bu esa har bir yosh fuqaroning shaxsiy boyligi hisoblanadi.

Shaxsda mujassamlangan inson kapitali rivojlantirilgani sari nafaqat boshqa shaxslarga, o'ziga balki jamiyatga ham foyda keltiradi. Inson kapitali rivojlangan shaxs o'z yon atrofiga ham mana shunday shaxslarni jamlaydi yoki aksincha o'z yaqinlarining ham kapitalini oshirishga turtki beradi. Inson kapitali yuqori bo'lgan shaxslar ijtimoiy faol, harakatchan, yetuk va muammolarni hal qiluvchi rolida bo'ladi. Bu esa har qanday makon va jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori inson kapitaliga ega inson esa, o'z-o'zini anglashi, muvaffaqqiyatga erishishi, qoniqarli hayot kechirish va jamiyatda o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Bu orqali u ham shaxsiy ham professional hayoti davomida to'g'ri qaror qabul qilish jarayonini ham shakllantiradi. Bu esa ijtimoiy insonning faolligini anglatadi. O'z-o'zidan sotsiologik jihatdan inson kapitali ahamiyatini ham oshiradi. Ishlab chiqarish unumdorligiga hissa qo'shish jihatidan esa, malakali va bilimli insonlar yuqori daromadli ishlarni bajaradi. Bu orqali u iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy farovonlik esa o'z-o'zidan shaxsning hayotida ijtimoiy farovonlikni keltirib chiqaradi. Ta'limni bu ijobiy spektri butun bir jamiyatning rivojida muhim hisoblanadi.

Olib borgan tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ldiki, so'ngi yillarda Inson kapitaliga boshqalardan ko'proq sarmoya kiritayotgan eng faol mamlakatlar beshligidan "Osiyo yo'lbarzlari" deb nomlangan Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan to'rtlik Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Gonkong va Kanada o'rin olgan. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, Sharqiy Osiyo mamlakatlari bor e'tiborini inson kapitaliga ya'ni talimga qaratgan holda bugungi darajaga erisha oldi. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan Janubiy Koreya o'tgan asrning 1950-1960- yillarida iqtisodiy jihatdan eng yomon holatda bo'lishiga qaramay, ta'limga tikilgan ulkan sarmoya bilan bugungi kunda har jabhada eng yuqori o'rinlarda keladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga (xususan, ta'limga) qo'yilgan ta'sirchan sarmoya Janubiy Koreyaning iqtisodiy o'sishini boshqa Janubiy va Sharqiy Osiyo iqtisodiyotlari darajasidan ancha oshirdi. ham ta'limga berilgan yuksak o'zini oqlamay qolmagan. Bugungi kunda aksincha rivojlangan g'arb va yevropa mamlakatlarini ko'radigan bo'lsak ham, inson ta'limiga berilgan yuksak pag'onadagi e'tiborni ko'rishimiz mumkin. Va bugungi kunda ana o'sha mamlakatlar o'zlaridan kelib chiqqan holda eng yaxshi ta'lim tizimini ham taklif qiladilar[23].

Haqiqatdan ham inson kapitalini yuklsaltirishda ta'limga kiritilgan sarmoya iqtisodiy o'sishning eng muhim aspekti hisoblanadi. "Inson kapitali iqtisodiy o'sishga ikki jihatdan hissa qo'shadi. Avvalo, insonda mujassamlangan inson kapitali alohida shaxslar unumdorligini oshiradi, bu esa umumiy ishlab chiqarish hajmining oshishiga va iqtisodiy o'sishga olib keladi. Ikkinchidan, shaxsda mujassamlashgan inson kapitali boshqa barcha ishlab chiqarish omillarining ham unumdorligiga hissa qo'shadi. Bular mos ravishda inson kapitalining ichki va tashqi ta'siri deb ataladi"[24].

Darhaqiqat, inson kapitalining rivoji orqali har bir fuqaro o'zining intellektual salohiyati, mehnat unumdorligi va ijtimoiy faolligini oshiradi. Bu esa o'z navbatida jamiyatning iqtisodiy kuchayishiga, ijtimoiy tenglikning mustahkam bo'lishiga va milliy farovonlikning yuksalishiga sabab bo'ladi.

Fydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mincer J. Investment in human capital and personal income distribution. Journal of Political Economy, 1958, vol. 66, no. 4, pp. 281–302
2. Schultz T. W. Investment in human capital. Am. Econ. Rev., 1961, no. 5, pp. 1–17.
3. Becker G. Investment in human capital: A theoretical analysis. In: NBER special conference 15, supplement to J Polit Econ, 1962, no. 70 (5), part 2, pp. 9–49.
4. Shultz T. Human Capital in the International Encyclopedia of the Social Sciences. – N.Y., 1968. Vol.6.; Becker G. Human Capital. – Columbia University Press, 1964
5. Yuqoridagi manba

6. Becker, G. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. University of Chicago Press
7. Haq, M. (1995). Reflections on Human Development. Oxford University Press.
8. Sen, A. (1999). Development as Freedom. Oxford University Press.
9. Смит Э. Национальная идентичность. – Москва: Основы, 1994; Кун Т. Структура научных революций. – М., 2009; Тернер Дж. Структура социологической теории. – Москва: Прогресс, 1985.
10. Фуко М. Археология знания. – СПб.: Университетская книга, 2004; Андерсон Б. Воображаемые сообщества. Размышление об истоках и распространение национализма. – М.: Канон-пресс, 2001.
11. Гулямов С., Очилов Н., Сайдахмедов О. Интеллектуал иқтисодиёт самарадорлик омиллари // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – 2015. – №6. – Б. 38-41; Абдурахмонов К.Х. Человеческое развитие. Учебник. – Ташкент: ФГБОУ ВО РЭУ им. Г. В. Плеханова, 2014. – С. 320.; Атаниязов Ж.Х., Жалилов Т. Роль человеческого капитала в инновационном Развитии экономики // Халқаро молия ва ҳисоб. – 2019. – №2. – С. 1-9; Усмонов Б. Ш. ва бошқ. Инсон капиталининг шаклланишида таълим ва илм-фаннинг роли (илмий-оммабоп рисола). – Самарқанд: СамДУ, 2015. – Б. 83.
12. Бекмуродов М. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2020. – 436 б.; Ўша муаллиф: Ўзбек менталитети. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.; Умаров А. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. Социология фан. докт. дисс. – Тошкент: ЎЗМУ, 2005; Холбеков А. Шарқ ва Ғарб мутафаккирларининг социологик таълимоти. – Тошкент: Университет, 1996. – 30 б; Содиржонов М. Инсон капитали пивожланиш жапаёнлапининг этносоциологик хусусиятлари (Фафғона водийси мисолида). Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2022.; Акрамов Х. Социал капитал аҳоли турмуш сифатини оширишнинг омили сифтида. Социология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021; Хomidjonov U. O'zbekiston maktab ta'limi tizimida inson kapitalini rivojlanitirishning sotsiologik tahlili. Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2024
13. Абдуллаева М.Н., Гаффарова Г.Г. Инсон капитали таълим призмасида // Глобаллашув шароитида Ўзбекистонда инновацион ғояларнинг ҳуқуқий, иқтисодий, ижтимоий-фалсафий, таълимий йўналишларининг ривожланиш истикболлари: Республика онлайн анжуман материаллари. – Тошкент, 2020.; Шарипов М. Интеллектуал инсон капиталининг моҳияти, манбалари ва хусусиятлари // ARES, Academic Research in

educational sciences. Vol.2, Issue 6, 2021. –Б.694-703.; Шарипов М. Соғлиқ капитали категорияси, унинг турлари, манбалари ва аҳамияти // ARES, Academic Research in educational sciences. Vol.2, Issue 6, 2021. –Б.710-719; Qosimov F.S. Yangilanayotgan O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2022.;b Muxammedov M.M. Inson kapitalini rivojlantirishni zamonaviy mexanizmlari va ularning taraqqiyotdagi ahamiyati masalalarining falsafiy tahlili. Falсафа fanlari бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2023.; Норқобилов М.Ж. Ижтимоий капитал – миллий ҳамжиҳатликни таъминлаш манбаи. Фалсафа fanlari бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022.; Ernazarov D. Ўзбекистонда ижтимоий капитал ривожланишининг тарихий илдизлари //Архив научных исследований. – 2019.; Ижтимоий капталини ривожланишида хорижий давлатлар тажрибаси //Архив научных исследований. – 2019.

14. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри.- Тошкент. "O'zbekiston" нашриёти. 2022. – Б 203

15. Kiker B.F. The Historical Roots of the Concept of Human Capital // Journal of Political Economy. 2001. P.486.

16. <https://pedagoglar.org/02/article/download/2459/2214/4328>

17. Ibragimov Sh. Finlandiya va O‘zbekistonda ta’lim tizimini sifatini solishtirma taxlili. Miasto Przyszlosci Kielce 2022. – P.348.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. <https://lex.uz/docs/-4312785>

19. Tan, C. (2016). Lifelong Learning through the SkillsFuture movement in Singapore: Challenges and prospects. International Journal of Lifelong Education, 36(3), 278-292.

20. Oliygo.uz (2023, fevral 24). O‘zbekistonliklar Coursera platformasida 5 ta yo‘anlish bepul ta’lim olishadi. <https://oliygo.uz/post/ozbekistonliklar-coursera-platformasida-5-ta-yonalish-boyicha-bepul-talim-olishadi>

21. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy statistik ma’lumotlar platformasi. <https://stat.edu.uz/>

22. <https://president.uz/oz/lists/view/7122>

23. <https://namdu.uz/media/media/postfiles/Axborotnoma%204-son.pdf> U.Qayumova. Inson kapitalini rivojlantirishda ta’limning ahamiyati. NamDU axborotnomasi. 4-son. – B. 220-227.

24. Lucas, Robert E. (1988): “On the Mechanics of Economic Development,” Journal of Monetary Economics, 22, 3–42.